

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Baxti Ochilova

KORRUPSIYA VA IJTIMOY HAYOT

o‘qitishning keys stadi texnologiyasi uchun
metodik ishlanma

Jizzax – 2021

UDK: 342.951:37(083)

343.35

Ochilova B

Korrupsiya va ijtimoiy hayot. (Keys-stadi) / Metodik ishlanma:
Bilim sohasi 100000 – Ta’lim. Ta’lim sohasi 110000 – Ta’lim.
Tuzuvchi-muallif Ochilova B. – Jizzax davlat pedagogika instituti. –
Jizzax, “Tahririy-nashriyot bo’limi”, 2021, 72 – bet.

Tayyorlangan mazkur ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 3-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan Falsafa fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu ishlanmada keys-stadi ta’lim texnologiyasi asosida korrupsiyaning mohiyati, turlari va namoyon bo‘lish shakllari, ularning oldini olish yo‘llari, usullari hamda huquqiy ong va madaniyatni oshirishga qaratilgan ma’rifat va targ‘ibot materiallari o‘z aksini topgan.

Qo‘llanmadan talaba va o‘quvchilar foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar

Tulenova Karima – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti professori, falsafa fanlari doktori

Saidqosimov Akbar – Jizzax davlat pedagogika instituti professor v/b, falsafa fanlari doktori

Jizzax DPI O‘quv-uslubiy Kengashining 24-noyabr 2021-yil 4-son majlis qarori bilan nashrga tavsiya etildi.

© Ochilova B., 2021 й.

© JDPI “Tahririy-nashriyot bo’limi”, 2021

SO‘Z BOSHI

Korrupsiya muammosi bugungi kunda dunyo miqyosida o‘z yechimini talab etayotgan birinchi masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu illatga qarshi kurashish nafaqat bizning mamlakat, balki jahon hamjamiyati bo‘ylab amalga oshirilib kelinmoqda. Bu illat zararli oqibatlarga olib kelishini insoniyat anglab yetdi. Shuning uchun aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik munosabatini shakllantirishning muntazam ravishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

2017-yil 3-yanvar kuni qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunida korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya masalalari Qonunning 16, 17, 18-moddalarida o‘z ifodasini topgan. Chunki, huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan va huquqiy ta’lim va tarbiya jihatdan yetuk bo‘lgan insonlar salbiy illat bo‘lmish korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaydilar. Binobarin, jamiyatda ustuvor soha — ta’lim tizimida tahsil oladigan o‘smirlar, yoshlar ongida korrupsiya illatiga toqatsizlik hissini uyg‘otish ko‘ndalang vazifadir. Biz ta’lim tizimi bo‘g‘inlarida o‘g‘il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga ta’magirlik, poraxo‘rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazzuli – iqtisodiyotimizni orqaga tortuvchi sabablardan biri ekanligi xususida ma’rifat va targ‘ibot ishlarini olib bormasak, kutilgan maqsad-muddaoga erisha olishimiz qiyin kechadi. Bu borada mamlakatimizda ta’lim muassasalarining o‘quv rejasidagi Falsafa fani o‘quv dasturiga korrupsiya va unga qarshi kurashishga oid mavzularining kiritilishi maqsadga muvofiq sanaldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Adolat va qonun

ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta'minlash"da korrupsiyaga qarshi kurashni davom ettirish, bu borada aybdorlarni huquqiy javobgarlikka tortish bilan cheklanib qolmasdan, shuningdek, tizimli preventiv choralarni qo'llash hamda korrupsiyaning oqibatlari, va sabablarini oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan choralarni ham amalga oshirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish, fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va amal qilish hissini shakllantirish vazifalariga yana bir bor to'xtaldi.

Mazkur vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni, 2020-yil 18-yanvardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasining "Oliy ta'lim sohasida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash hamda bartaraf qilishga qaratilgan vazifalar"ga bag'ishlangan yig'ilishida belgilangan vazifalar bilan uzviy bog'liqligi va mantiqan izchilligini ifodalaydi.

Mazkur metodik ishlanmaning xarakterli xususiyati shundaki, unda korrupsiyaning oldini olishning nazariy poydevori "ta'lim, xabardorlik va targ'ibot" - asosiy tamoyillari ekanligi asoslangan va korrupsiya hodisasining genezisi, korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar, iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy-madaniy sabablari, omillari, korrupsiyaviy huquqbuzarlik va turlari, shakllari va darajalari, kundalik turmushdagi korrupsiyaning namoyon bo'lishi, dunyo davlatlari tajribasida korrupsiyaning oldini olish va qarshi kurashish samaradorligi, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va amalga oshirilayotgan ishlar tahlilini o'z ichiga olgan o'quv resurslari keys stadi o'qitish texnologiyasida berilgan.

Ma'lumki, ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishiga, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishini ta'minlashga bog'liq. Bu borada keys stadi o'qitish texnologiyasi alohida o'rin tutadi. Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki

mavzu yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar rejasi, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Ya'ni hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat. Shu nuqtayi nazardan tayyorlangan mazkur ish ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik kiritish va muammolarni yechish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.



KEYS-STADI

FALSAFA

Mabzy: Korrupsiya va ijtimoiy hayot

“Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinislari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, ... jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”

Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan

Murojaatnomasi


KEYS TOPSHIRIG'I:

Rasm orqali korrupsiya nima ekanligi, nimadan boshlanishi, predmeti, omillarini belgilang.



- 1.«Korrupsiyasiz soha» loyihasining amalga oshirilishi nega ta'lim va tibbiyotdan boshlanganini asoslang
- 2.«Sardoba» falokati korrupsiya bilan bog'ligiga faktlar keltiring.

KORRUPSION VAZIYATLAR



Hozirgi kunda korrupsiya global muammodir. Ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ammo qaysidir davlatda bu jinoyat darajasi past, boshqasida esa aholining asosiy qatlami mazkur illatdan muttasil aziyat chekadi. Chunki, korrupsiya to'g'ridan-to'g'ri davlatning iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy, umuman olganda, milliy xavfsizligiga putur yetkazadi, BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga 1,5-2,6 trillion dollargacha zarar ko'rmoqda.

Aslida korrupsiyaga qarshi kurash jahon xalqlarining qadimiy muammolaridan biri sanaladi. Miloddan avvalgi 3 ming yillikning o'rtalariga taalluqli bo'lgan matnlarda aytilishicha, shumer podshosi Urukagin o'sha zamonlardayoq qonunga xilof ravishda haq olishga ruju qo'ygan sudyalar va amaldorlarning qonunbuzarliklariga chek qo'yish muammosini yechish yo'llarini izlagan. Korrupsiya haqidagi eng qadimgi qaydlardan biriga qadimgi Bobilning mixxatda yozilgan bitiklarida duch kelingan. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida topilgan hujjatlar miloddan avvalgi 597 – 538-yillarda, yahudiylar Bobil podshosi tomonidan asirga olinganidan keyingi davrda, Ierusalimda korrupsiya, ayniqsa, avj olganidan dalolat beradi. Pora olish va berish Qadimgi Rimda amal qilgan 12 jadval qonunlarida tilga olingan.

Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qur'oni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan. Poraxo'rlik Usmoniylik xalifaligida ham mavjud bo'lgan. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilardi, lekin vaqt o'tishi bilan bu ishni o'ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo'yicha shaxsiy yordamchisi bo'lgan vazirga topshirib qo'ydi. Vaqt o'tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o'rtalariga kelib,

u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo'lgandi. Masalan, xalifa Muqtadirning vaziri bo'lgan Ubaydulloh Hoqoniy (926-yil vafot etgan) amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalanganini aytish mumkin.

Pulga qattiq muhtojlik sezayotgan davlat soliqlar to'plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois, bu turli suiiste'molliklarni keltirib chiqarardi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi. Shuningdek, dehqonlardan turli soliqlarni to'plashda harbiy xizmatchilar ham turli qing'irliklarni sodir etardi. Afsuski, bu suiiste'mol holatlarini Usmoniylar saltanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir "uzatish" evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo'ydi, o'zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa, o'z navbatida, vazirlar timsolida ko'ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to'qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Mutafakkirlar o'z asarlarida bu illat xususida to'xtalishgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini barpo qilishda to'g'anoq bo'ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deya qayd etadi. Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» asarining 40-bobi «Mulozimlar tarbiyati va odobi bayonida» deb nomlanib, unda poraxo'rlikning oqibatlarini keltirib o'tilgan: "Vazir ish yurituvchi amaldorlardan pora olishdan ehtiyot bo'lsin. Bilsinki, to bir kishi boshqalardan pora olmasa, boshqaga pora bermaydi. Agar vazir pora olishga sabab bo'lsa, pora olishga ruxsat bergan bo'ladi. Pora berish va pora olish haromdir. Pora olgan pora bergandan yomonroq bo'ladi, chunki oluvchi beruvchi oldida zabun bo'ladi. Bunday zabunlikka vazir munosib emas". Amir Temur davlatida amaldorlar ishini tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan so'roq, tekshirish, taftish, tergov o'tkazib turilgan. O'z amalini suiiste'mol qilib poraxo'rlik, doimiy ravishda ichkilik ichish, maishiy buzuvchi kabi qilmishlarga yo'l qo'yish og'ir gunoh hisoblangan va qattiq jazolangan.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temurning o‘g‘li Mironshoh, nabiralari Pirmuhammad va Halil Sultonlar yuqorida zikr etilgan me‘yorlarni buzganlik uchun xalq oldida jazoga tortilganlar.

Fransuz mutafakkiri Sharl Monteskye esa bu borada: “Asrlar tajribasidan ma’lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, uni suiiste’mol qilishga moyil bo‘ladi va u ma’lum bir maqsadga erishmagunicha shu yo‘nalishda yuradi” degan fikrlarni bildirgan. Korrupsiyaning kelib chiqishi tarixi va rivojlanishi masalalarini Nikkolo Makiavelli o‘rganib, uni yo‘talga qiyoslab shunday degan edi: “Korrupsiyani ham yo‘talga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo davolash oson, lekin bu kasalni o‘tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin”. Aynan ushbu so‘zlardagi haqiqatni bugungi kunda dunyo bo‘yicha keng tarqalgan korrupsiya ko‘rinishlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin bo‘ladi. G‘arbiy Yevropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko‘rinishlari va korrupsion munosabatlarning avj olishi nafaqat tarixiy manbalarda, balki o‘sha davrning ilg‘or yozuvchi faylasuflarining asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, Shekspirning “Venesiyalik savdogar”, “Qonga qon, jonga jon”, Dantening “Do‘zax”, “Tozalovchi” kabi asarlarida ham yoritilgan. Dante korrupsionerlarni do‘zaxning eng qorong‘i va eng chuqur joyiga tashlash kerak, degan fikrni bildirgan.

ASOSIY QISM


Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2003 yil 21 noyabrdagi rezolyusiyasiga muvofiq, **2004 yildan boshlab 9 dekabr** – Butunjahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni sifatida nishonlanmoqda.

«**KORRUPSIYA**» atamasining ma'nosi

lotincha **corruptio** - “pora evaziga og'dirish”

Yapon tilida - “iflos ish”





KORRUPSIYA TUSHUNCHASINING HUQUQIY TA'RIFI



BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasida
“korruptsiya- bu **shaxsiy naf** ko'rish maqsadida davlat
hokimiyatini suiste'mol qilishdir”.



Rossiya qonunchiligiga muvofiq, korruptsiya bu – xizmat mavqeini suiste'mol qilish, **pora berish, pora olish**, vakolatlarni suiste'mol qilish, tijorat asosida pora berib sotib olish yoki jismoniy shaxsning o'zi uchun yoki uchinchi shaxslar uchun pul, qimmatbaho narsalar, boshqa mulk yoki mulkiy xarakterdagi huquqlar yoki boshqa mulkiy huquqlarni qo'lga kiritish maqsadida davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda o'zining xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish



BMT Mansabdor shaxslarining obod-axloq Kodeksi

“Korruptsiya – mansabdor shaxs tomonidan muayyan harakat yoki harakatsizlik sodir etish (etmaslik) evaziga **moddiy manfaatdor** qilayotgan shaxsning manfaatini ko'zlab mansab vazifasini buzgan yozi buzmag holida, turli shaklda moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko'rish.”



«Ishonib topshirilgan
hokimiyatni **shaxsiy manfaat**
yo'lida suiste'mol qilishdir”



O'z. R. "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi 3 – moddasida - “korruptsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab **moddiy yoki nomoddiy naf olish** maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.

KORRUPSIYA : SOHA VAKILLARINING TA'RIFI



Sotsiologlar:

“Hokimiyat vakillari o‘zlarining qonunga xilof shaxsiy manfaatlari yo‘lida kutilayotgan **hulq-atvor stantartlaridan** voz kechishdir”



Huquqshunoslar :

Ommaviy boshqaruv apparatini o‘z komiga tortgan, hokimiyatning buzilishida, davlat va munitsipal xizmat xodimlari, davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli boshqa shaxslar **o‘z xizmat mavqei, maqomi va egallagan lavozimining obro‘sidan** ta‘magirlik maqsadida, shaxsiy boylik orttirish uchun yoki guruh manfaatlarida qasddan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy illat



Menajmentlar:

“Biron-bir jiddiy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida bajariladigan g‘ayriqonuniy, qoida tariqasida **qoralandigan harakat**”

KORRUPSIYA GENEZISI VA EVOLYUSIYASI



Korrupsiyaning tarixiy ildizlari, biron kishida moyillik uygʻotish uchun sovgʻa berish **odatiga** borib taqaladi.



Korrupsiya muhokama qilingan dastlabki asar — «**Artxa-shastra**» — eramizdan avvalgi IV asrda Bxarat (Hindiston) vazirlaridan biri tomonidan Kautilya taxallusi ostida chop etilgan. Unda muallif «podshohning mulki, hatto kichik miqdorda boʻlsa ham, bu mulkni idora qiladiganlar tomonidan oʻzlashtirib olinishi mumkin emas» degan xulosa chiqargan.



Qadimgi Rim qonunlarida «*corrumpere*» atamasi «*sudda koʻrsatmalarni pulga sotib olish*» va «*sudyani pora berib sotib olish*» mʼnosida foydalanila boshlagan.



Nikkolo Makiavelli asarlari korrupsiyani anglab yetishga muhim turtki bergan. U korrupsiyani kasallik, masalan, sil kasalligi bilan tenglashtirgan. Agar kasal oʻtqazib yuborilgan boʻlsa, uni aniqlash oson, lekin davolash juda qiyin.

ASOSIY QISM:

“Korrupsiya” tushunchasiga aynan nima kiradi? Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, *korrupsiya davlat amaldoriga shaxsan yoki boshqa shaxslar orqali lavozim majburiyatlari doirasida qandaydir harakat yoki harakatsizlikni amalga oshirishi uchun mansabdor va boshqa shaxs uchun g‘ayriqonuniy bo‘lgan imtiyoz va’da berish, taklif qilish yoki taqdim qilish hisoblanadi*. Bunday ta’rif ma’lum bir lavozim majburiyatlariga ega xususiy shaxslarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Xalqaro huquqning ayrim manbalarida, xususan, Korrupsiya muammolari bo‘yicha Yevropa Kengashi guruhlarining 1-sessiyasi (1995-yil 22 – 24-fevral, Strasburg)da “Korrupsiya”ga shunday ta’rif berilgan. *“Korrupsiya - pora olish (o‘ziga og‘dirish), davlat yoki xususiy sohada muayyan vakolatga ega bo‘lgan shaxs, mansabdor shaxsning yoki xususiy sohada faoliyat yuritadigan shaxs yoki mustaqil agentning o‘z mansab vazifasidan yoki shunga o‘xshash munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarini buzadigan, shuningdek, o‘zi yoxud o‘zga shaxslar manfaati uchun har qanday shakldagi afzalliklarga ega bo‘lish maqsadida ifodalangan xatti-harakat”*. Mansabdor yoki mansabdor bo‘lmagan shaxslar tomonidan yuqorida nazarda tutilgan xatti-harakatlar sodir etilishi oqibatida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko‘p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkaziladi.

BMT Mansabdor shaxslarining obod-axloq Kodeksi (17-dekabr 1979-yil)da *“Korrupsiya – mansabdor shaxs tomonidan muayyan harakat yoki harakatsizlik sodir etish (etmaslik) evaziga moddiy manfaatdor qilayotgan shaxsning manfaatini ko‘zlab mansab vazifasini buzgan yozi buzmaganda, turli shaklda moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy naf ko‘rishi”*, BMTning Korrupsiyaga qarshi xalqaro kurash bo‘yicha axborot hujjatida *“Korrupsiya – shaxsiy manfaati yo‘lida davlat hokimiyati vazifalarini suiiste’mol qilishi”*dir, deb ta’rif berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: *“Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”*. Bundan ko‘rinib turibdiki, korrupsiya nafaqat pora olish yoki berish emas, balki xizmat, mansab lavozimidan qonunga xilof ravishda foydalanishi ham korrupsiya hisoblanar ekan.



MUAMMO

* Korrupsiyaning **iqtidosiy sabablaridan** biri davlat xodimlari maoshlarning kamligi shuningdek, ularga firmalar va fuqarolarfaoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadigan katta vakolatlar berilganligi

* Davlat idoralari ishining yashirin-yopiqligi, hisobotdorlikning chalkash og'ir tizimi, qonunchilik tizimida shaffoflikning yo'qligi **institutsional sabablar** qatoriga kiradi.

* Yetarlicha axborotning berilmasligi va fuqarolarning uyushqoq emasligi, «kuchni qo'llarida ushlab turganlarning» o'zboshimchaligiga nisbatan ijtimoiy faollikning yo'qligi **ijtimoiy-madaniy sabablar**dir.

FUNDAMENTAL ZIDDIYAT

Qonun konservativligi:

Amalda yo'riqnomalar tashki sharoitlardan ko'ra sekinroq o'zgaradi. Shu sababli ular o'z ixtiyoricha harakat qilishga joy qoldiradi, chunki aks holda boshqaruv tizimi umuman moslashuvchan emas bo'lib qoladi va qat'iy me'yorlarning voqelikka mos kelmasligi ishini to'liq to'xtatib qo'yishga qodir bo'ladi. Biroq bu shuni anglatadiki, qonunchilikda ko'zda tutilmagan vaziyatda ma'mur eng katta foyda keltiradigan rentaga amal qilish boshlashi mumkin.

Hamma narsani qamrab oladigan nazorat imkoni yo'qligi:

Nazorat xarajatlar talab qiladi, lekin bundan tashqari, juda qattiq nazorat boshqaruv personalni sifatiga zarba beradi va ijodiy fikrlaydigan kadrlar ketib qolishigi sababchi bo'ladi.

MUAMMO

Ikki ma'noda tushunish
mumkin bo'lgan
qonunlar

Aholining qonunlarni bilmasligi
yoki tushunmasligi, bu
mansabdor shaxslarga tegishli
to'lovlarini oshirish yoki
byurokratik jrayonlarni amalga
oshirishga to'sqinlik qilish
imkonini beradi

Mamlakatdagi siyosiy
vaziyat beqarorligi

Hukumat institutlari
o'zaro aloqa qilishi
uchun shakllangan
mexanizmlar yo'qligi

Byurokratik apparat
faoliyatining negizida
yotadigan standartlar va
tamoyillarning
boshqaruvchi elita
siyosatiga bog'liqligi

Byurokratiyaning
professional chuqur
bilimlarga ega emasligi

Korrupsiya ustidan
nazorat mexanizmlarini
zaiflashtiradigan maxfiy
bitimlar shakllantirishga olib
keladigan oshma-
og'aynigarchilik va siyosiy
homiylilik;

Ijroiya hukumati tizimida
hamjihatlik yo'qligi, ya'ni
bir xil faoliyatning turli
instansiyalar tomonidan
tartibga solinishi

Davlat ustidan nazoratda
fuqarolarning ishtirok
etish darajasi pastligi

MUAMMO

Antropologik omillar

Insonning ziddiyatli tabiati, ezgulik va èvuzlikning doimiy kurashi, insonning kam kuch sarflab ko'proq foyda olishga intilishi va sh.k.

Iqtisodiy omillar

Tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi "qonunga bo'ysunish bahosi", bozor xo'jaligi doirasidagi raqobat, iqtisodiyotning turli sektorlarining notekis rivojlanishi, va boshqalar

Ijtimoiy omillar

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, "xavf guruhlari" ning mavjudligi, mehnat qonunchiligining buzilishi, muhojir ishchilar, aëllar va o'smirlar mehnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi va h

Huquqiy omillar (tadbirkorlikning huquqiy asosi nomukammalligi, bozor xo'jaligining o'zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o'rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo'jaligining tartibga solinmasligi va sh.k.)

Axloqiy omillar (davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; milliy an'analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarining ta'siri va boshqalar)

Siesiy omillar (hokimiyat va yirik kapital o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatishning kuchga asoslangan usullari o'rtasidagi nisbat)

MUAMMO

Amaldor, huquqni muhofaza qilish, sud, soliq, bojxona, ta'lim, tibbiyot yoki ma'muriy muassasalar, shuningdek, har qanday xususiy korxonaning mansabdor shaxsiga **pora berish**

Mahalliy yoki chet el amaldori va xalqaro tashkilot amaldorini pora berish orqali **sotib olish**

Davlat mansabdor shaxsi tomonidan **mulkni talon-taroj qilish**, g'ayriqonuniy o'zlashtirish yoki undan maqsaddan tashqari foydalanish

Shaxs tomonidan shaxsiy **boylik orttirish** yoki uchinchi shaxsning boyishi maqsadida

Korrupsiya harakatlaridan **daromad olish**

Oshna -og'aynigarchilik yoki urug' - aymoqchilik

KORRUPSIYA HARAKATLARI



MUAMMO



Sub'ektlarning
maqomiga
ko'ra:



- hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- xususiy sektordagi korrupsiya;
- siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya

Darajasiga ko'ra



- quyi darajadagi korrupsiya;
- yuqori darajadagi korrupsiya;
- vertikal korrupsiya

Ijtimoiy
xavflilik
darajasiga ko'ra



- korrupsiya-qilmish;
- korrupsiya-jinoyat

KORRUPSIYA TARMOQLARI

hamkorlikdagi korrupsiya faoliyati natijasidan daromad olish maqsadida tashkil etilgan (shakllantirilgan) jinoiy guruhlar



korrupsiya daromadlarini yig'ib, uni pulga aylantiradigan guruh



korrupsiyaga oid qarorlar qabul qilishni ta'minlaydigan guruh



korrupsiya tarmoqlarini himoya qiladigan huquqni himoya qiluvchi organlar mansabdor shaxslar guruhi

MUAMMO


KORRUPSIYA BORASIDA **BOYISH** sohalari

1. Investitsion loyihalar
2. Davlat xaridlari
3. Budjetdan tashqari schetlar



KORRUPSIYA BORASIDA **ENG FOYDALI** bo'lgan sohalar

1. Soliq imtiyozlari
2. Xomashyo tovarlarini bozor narxlaridan arzonga sotish
3. Rayonlashirish, chunki bu yerning bahosiga ta'sir etadi
4. Tabiiy resurslar qazib chiqarish
5. Davlat aktivlarini sotish, ayniqsa, davlat korxonalarini xususiy lashirish
6. Tijorat faoliyatining ma'lum bir turiga (ayniqsa, eksport-import sohasida) monopoliya hokimlik taqdim etish
7. Xufiyona iqtisodiyot va noqonuniy biznes stidan nazorat (tamagiriklik, taqib qilishdan himoya, raqobatchilarni yo'q qilish va h.k.)
8. Hukumat organlarida mas'ul lavozimlarga tayinlash



MUAMMO

- Birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslardan olingan noqonuniy mukofotning bir qismini yuqori darajadagi mansabdor shaxslarga o'z xavfsizligini ta'minlash va korrupsiya faoliyatini davom ettirish uchun berib borishdir.
- Ikkinchidan, davlat organida korrupsiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi har ikki tomon ham bir sohaga mansub bo'lib, quyi davlat organining mansabdor shaxsi porani o'z boshlig'iga berib boradi, boshliq esa quyi organ rahbarini korrupsiya faoliyatini himoyalaydi yoki unga qo'shimcha moliyaviy, moddiy va boshqa resurslar, vakolat va boshqa imkoniyatlar berilishini ta'minlaydi.



turli idoralarning bir xil darajadagi rasmiy bir-birlari bilan o'zaro va xizmat bo'yicha bog'liq bo'lmagan mansabdor shaxslari o'rtasidagi korrupsiyaviy munosabatlar.



KORRUPSIYANI O'LGHASH

Korrupsiyani o'lgash rasmiy muomaladan resurslarni chiqib ketishi va davlat boshqaruvidagi muammoli sohalarni aniqlashga yordam beradi. Davlat xazinasidan yo'qotilgan pul miqdorini hisoblash bilan bir qatorda, korrupsiya to'g'risidagi ma'lumotlar davlat va jamoat institutlarining alohida e'tiborini talab qiladigan qonunchilik tizimining sifati, qonunlarga muvayyan sohalarda amal qilinishi, davlat siyosatining samaradorligi kabi davlat boshqaruvining muammoli sohalari haqida xabar beradi.

1 KORRUPSIYANI IDROK ETISHNI BAHOLASH USULI.

Masalan, Transparency International tashkilotining korrupsiyani idrok etish indeksi, Jahon bankining korrupsiyani boshqarish indeksi. Ushbu usul mamlakat ekspertlari va aholi o'rtasida mamlakatda korrupsiya holati to'g'risida so'rov o'tkazishni nazarda tutadi.

2 KORRUPSIYANI BAHOLASH BO'YICHA SO'ROV USULI.

Masalan, Transparency International tashkilotining global korrupsiya barometri va Jahon bankining biznes so'rovi. U mamlakatda korrupsiya muammolari bilan bog'liq tajribasi to'g'risida firmalar va aholi orasida so'rov o'tkazishni o'z ichiga oladi.

3 KORRUPSIYANI BEVOSITA KUZATISH USULI.

Masalan, Indoneziyada to'qqiz oy davomida tadqiqotchilar yuk mashinalari haydovchilarini kiyimini kiyib, odatiy yo'nalishlar bo'ylab yuk mashinalari haydovchilarini kuzatib borishgan.....

4 KORRUPSIYANI AJRATISH BO'YICHA BAHOLASH USULI.

Hisobot nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladigan hisobot xarajatlari va analda ishlatilgan xarajatlarni taqqoslashni o'z ichiga oladi

KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIK

korruptsiya xatti-harakatlarini sodir etishga sabab bo'ladigan holatlar (omillar) yoki muayyan korruptsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etilishi, mavjudligi, ularni tarqalishi uchun qulay shartsharoitlar yaratadigan huquqbuzarliklar.

2020 yil davomida jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar faoliyat yuritgan **hududlar kesimida** tahlil qilinganida, 245 ta Toshkent viloyati, 173 ta Samarqand viloyati, 170 ta Jizzax viloyati, 130 ta Surxondaryo viloyati, 152 ta Farg'ona viloyati, 109 ta Namangan viloyati, 100 ta Andijon viloyati, 95 ta Qashqadaryo viloyati, 85 ta Sirdaryo viloyati, 79 ta Xorazm viloyati, 78 ta Toshkent shahri, 78 ta Qoraqalpog'iston Respublikasi, 51 ta Navoiy viloyat, 19 ta Buxoro viloyatida mansabdorlik jinoyatlari qayd etilgan.

2021 yilning birinchi yarmida **2544** nafar mansabdor shaxsga nisbatan korruptsiya huquqbuzarliklari bo'yicha jinoiy ishlar qo'zg'atildi. Umumiy zarar miqdori **592,5 mlrd so'm**ga baholandi. Eng ko'p holatlar — **SSV, XTV va bank sektorida**.

Korruptsiyaga oid jinoyatlar — Jinoyat kodeksining 167-moddasining ikkinchi qismi «g» bandi, 168-moddasining uchinchi qismi «v» bandi, 192₉ va 192₁₀, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlar.

Korruptsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar — Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61₁, 193₁ va 193₂-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar.

2021 yil 6 oyi davomida mansabdor shaxslari jinoiy javobgarlikka tortilgan davlat organlari va tashkilotlari:

Sog'liqni saqlash vazirligi — 107 ta;
Xalq ta'limi vazirligi — 74 ta;
davlat ulushi bo'lgan davlat tashkilotlari — 69 ta;
Banklar — 66 ta;
Maktabgacha ta'lim vazirligi — 64 ta;
Transport vazirligi — 55 ta;
Energetika vazirligi — 32 ta;
Suv xo'jaligi va mehnat vazirliklari — 26 tadan;
Davlat Soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi — 24 ta;
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi — 23 ta;
Madaniyat vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi — 15 tadan;
Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi -14 ta;
Qishloq xo'jalik vazirligi — 13 ta;
Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi — 10 ta;
Hokim o'rinbosarlari va Moliya vazirligi — 9 tadan;
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi — 5 ta;
Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi — 4 ta.

2020 yil — 2021 yilning 1-yarmida ochiq sud jarayonlarida ko'rib chiqilgan 55 ta jinoiyat ishlari o'rganib chiqildi. Bunday jinoiyat ishlarining 15 tasi fribgarlik, 18 tasi o'zlashtirish va rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilish, 2 tasi poraxo'rlik, 20 tasi boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan jinoiyatlarni tashkil qiladi.

1297 nafar shaxs (51%) JKning 167-moddasida ko'rsatilgan jinoiyatlarni sodir etgan shaxslar tashkil qilgan. Shuningdek, JKning 168-moddasi bilan 420 nafar shaxs, 210-moddasi bilan 80 nafar shaxs, 205-moddasi bilan 58 nafar shaxs, 206-moddasi bilan 4 nafar shaxs, 209-moddasi bilan 18 nafar shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Yuqori darajadagi korrupsiya: tekshirishlar /akkreditatsiya, universitetlar uchun kvotalar ajratish, OAK tizimi, o'quv yurtlarini moliyalashtirish (jumladan, darslik adabiyotlarini nashr qilish uchun byudjet mablag'lari ajratish) bilan bog'liq.

Quyi darajadagi korrupsiya bevosita ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi: o'quv yurtlariga qabul qilish, kirish imtihonlari, oraliq va bitiruv imtihonlarini topshirish, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish, talabalarning o'qish joyini ko'chirish, o'qish yo'nalishini o'zgartirish, o'qishga qayta tiklash, imtihonlarga aldov aralashtirish



1. oliy ta'limning xaddan ziyod siyosiylashgani
2. markazlashgani
3. boshqa tizimlarga qaramligi va ular nazorati ostida ekani

KORRUPSIYA QUYIDAGILARGA SABABCHI BO‘LADI:

davlat mablag‘lari va resurslarini samarasiz taqsimlash va sarflash;

Mamlakat iqtisodiyoti nuqtai nazaridan korrupsion moliyaviy yo‘qotishlar samarasizligi;

Soliq organlari soliqchlarning bir qismini o‘zlashtiri bolgan hollarda soliqchlarning yo‘qotilishi qo‘yiladigan to‘siqlar tufayli vaqt yo‘qotilishi, davlat apparatida ish samaradorligining pasayishi xususiy tadbirkorlarning xonavayron bo‘lishi;

Malakali kadrlarning boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;

Ishlab chiqarishga investitsiyalar pasayishi, iqtisodiy o‘rnatishning pasayishi; ijtimoiy servis sifatining pasayishi;

rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro yordamdan maqsadli yo‘nalishda foydalanmaslik, bu uning samaradorligini keskin tushirib yuboradi;


Shaxslar qobiliyatlaridan samarasiz foydalanish: moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish o‘rniga odamlar umumsiz renta izlashga vaqt ketkazib o‘tiradi;

Ijtimoiy tengsizlikning o‘rnatilishi;

Uyushgan jinoyatchilikning kuchayishi – «banda»lar «mafia»ga aylanadi;

hukumatning siyosiy qonuniy huquqlariga putur yetishi;

Jamiyatda odob-axloq pasayib ketishi.



KORRUPSIYA SALBIY OQIBATLARI

Birinchidan, siyosiy jihatdan - korrupsiya amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarga qarshilik ko'rsatuvchi va to'siq bo'luvchi omillarni vujudga keltiradi.

Ikkinchidan, jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklari jiddiy tarzda buzilishiga olib keladi.

Uchinchidan, korrupsiya jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslarini yemirishi va jamiyat a'zolarining fuqarolik mavqei yo'qqa chiqarishi mumkin. bu esa amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni noxolis baholash va salbiy munosabatni vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi.

To'rtinchidan, jahon xo'jalik aloqalariga faol integratsiyalashuv, chet el investitsiyalari va tadbirkorlarini iqtisodiy o'zgarishlar jarayoniga tortish sohasidagi aniq maqsadga qaratilgan faoliyat bugun o'zbekiston uchun ustuvor vazifalar hisoblanadi. bu maqsadlarni ro'yobga chiqarish sharoitida korrupsiyachilarning hatti-harakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik sheriklarda ishonchsizlik uyg'otadi va ularni cho'chitib qo'yadi.



MUAMMO:

Oddiy xalq orasida korrupsiya deganda ko‘pincha davlat amaldorlarining shaxsiy boylik orttirish hamda davlat, jumladan, xalq manfaatlari va resurslariga ziyon yetkazish maqsadidagi poraxo‘rligi tushuniladi. Gap xususiy soha to‘g‘risida ketayotgan bo‘lsa, unda odatda yirik ko‘lamdagi poraxo‘rlik yoki xususiy korxonalar mulkini talon-taroj qilish nazarda tutiladi. Aslini olganda korrupsiya tushunchasi anchayin keng bo‘lib, quyi tabaqadan tortib to yuqori tabaqagacha bo‘lgan aholining deyarli barcha ijtimoiy qatlamlari, nafaqat davlat, balki xususiy sohalarni ham qamrab oladi.

Korrupsiya nafaqat yashirin, balki kelishuvchanlik tabiatiga ham ega. U odatda shikoyatga o‘rin qoldirmaydi, zero, ikkala aybdor tomon ham mazkur noqonuniy kelishuvdan yaxshigina foyda oladi. Korrupsiyada doim kamida ikki tomon ishtirok etadi: bunda bir tomondan noqonuniy yo‘l bilan boylik orttirayotgan (o‘zi yoki uchinchi shaxs uchun) mansabdor shaxs va boshqa tomondan mansabdor shaxsdan aktiv yoki passiv usulda uning manfaatini ko‘zlovchi qaror qabul qilinishini kutayotgan shaxs.

Korrupsiya xatti-harakatlari odatda yashirin bo‘lib, bu ularni aniqlash va yozishni qiyinlashtiradi, korrupsiya faoliyati to‘g‘risida ko‘pincha xabar berilmaydi, chunki to‘lashi kerak bo‘lganlar qasos olinishidan yoki biron-bir darajada jinoyat uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari mumkinligidan qo‘rqishadi. Korrupsiya – o‘g‘rilik, firibgarlik, qarindoshchilik, poraxo‘rlik, tovlamachilik va pul yuvish (отмывание) kabi shakllarni oladi, bu korrupsiya amaliyotini yagona indikator ko‘rinishida qamrab olish imkonsiz ekanini ko‘rsatadi. Masalan, biror bir ishda mansabdan foydalanib o‘z yaqin kishisiga yordam berish (boshqalar zarari hisobiga) va buning uchun to‘lov olmaslik, mohiyatan korrupsiya, lekin buni aniqlash mushkul kechadi.

Kundalik hayotda bugungi kunda, o‘zimizning hurmatimiz, e‘tiborimizni bildirish uchun o‘qituvchi yoki shifokorga o‘z ixtiyorimiz bilan kichik tuhfa berishimiz, rahbar to‘y qilsa, pul yig‘ib berish maishiy masala deb qaralgani bilan, aslida bu ham korrupsiogen holat.

Yoki tantanalarda davlat tashkiloti rahbariga sovg'a berish odati, hokimning kimgadir avtomobil sovg'a qilishi, kimgadir pul tarqatishi oddiy hol bo'lib tuyuladi. Ayrimlar an'anaga ko'ra, bajarilgan ish uchun minnatdorlik izhor qilish tabiiy, degan o'rinli e'tiroz bildirishi mumkin. Ko'plab g'arb korxonalarida sovg'a olish masalalarini tartibga soluvchi ichki reglament *qoidasi/talabi* qabul qilingan bo'lib, unda xodimlardan sovg'a olish yoki berishda shaffoflik talab qilinadi, ruxsat berilgan va ruxsat berilmagan sovg'a va iltifot belgilari, ularning belgilangan qiymati, sovg'a olgan shaxsning uni maxsus registrda deklaratsiya qilish majburiyati mustahkamlab qo'yilgan, pul ko'rinishidagi sovg'alarni olish man etiladi.

Yana bir misol. Sudya va advokat ishdan tashqari paytda istasa choyxonada o'tira oladi. Ayrim davlatlar borki, sudya va advokatning bunday iliq munosabatlarini jamoatchilik ko'rib qolsa, iste'fo berilishi kerak.

Korrupsiya harakatlari:

- amaldor, huquqni muhofaza qilish, sud, soliq, bojxona, ta'lim, tibbiyot yoki ma'muriy muassasalar, shuningdek, har qanday xususiy korxonaning mansabdor shaxsiga pora berish;
- mahalliy yoki chet el amaldori va xalqaro tashkilot amaldorini pora berish orqali sotib olish;
- davlat mansabdor shaxsi tomonidan mulkni talon-taroj qilish, g'ayriqonuniy o'zlashtirish yoki undan maqsaddan tashqari foydalanish;
- shaxs tomonidan shaxsiy boylik orttirish yoki uchinchi shaxsning boyishi maqsadida o'z obro'si yoki xizmat mavqeidan foydalanish;
- korrupsiya harakatlaridan daromad olish;
- oshna-og'aynigarchilik yoki urug'-aymoqchilik.

Korrupsiya turlari:

Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya (o'z shaxsiy ta'magirlik niyatlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qilish) ierarxiyaviy holatiga qarab yuqori pog'ona (siyosatchilar, yuqori va o'rta darajadagi amaldorlar) va quyi pog'ona (amaldorlar bilan fuqarolar o'rtasidagi

doimiy, kundalik o‘zaro aloqa) bilan bog‘liq korrupsiya farqlanadi. Ko‘pchilik hollarda korrupsion bitimdan manfaatdor tomonlarning ikkalasi ham bir davlat tashkilotiga mansub bo‘ladi. Masalan, amaldor o‘z boshlig‘iga u pora beruvchining korrupsion harakatini yopdi-yopdi qilgani uchun pora bersa, bu ham korrupsiyadir (vertikal korrupsiya).

Parlamentdagi korrupsiya (saylov paytida saylovchilarning ovozlari sotib olish bilan bog‘liq). Saylovchi konstitutsiyaga muvofiq “hokimiyat vakolatlari” deb nomlangan resursga ega bo‘ladi (ya’ni deputatlarni xalq saylaydi). Ovozlar sotib olingan holda saylovchi va nomzod o‘zaro bitishuvga kirishadi.

Jamoat tashkilotlari, korxonalaridagi korrupsiya (xodimlari o‘ziga tegishli bo‘lmagan resurslarni tasarruf etishi mumkin).

Siyosiy korrupsiya (hukmron yoki muxolif elitalar, partiyalar, guruhlar va ayrim shaxslarning hokimiyat uchun kurashi). Har qanday siyosiy korrupsiya g‘oyaviy korrupsiyaning mahsuli sifatida amal qiladi.

G‘oyaviy korrupsiya (davlat boshqaruvi darajasida hokimiyat qarorlarini qabul qilishni monopoliyalashtirish va ularni tanlash doirasini cheklash).

Kadrlar korrupsiyasi (boshqaruvga umuman layoqati bo‘lmagan odamning favoritizm ta’sirida rahbar lavozimiga taynlanishi). U ko‘p hollarda g‘oyaviy korupsiyaning oqibati sifatida amal qiladi.

O‘zbekistondagi korrupsiya xavfi bo‘lgan sohalar:

Davlat xizmatlarini ko‘rsatish. Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham davlat har doim ham aholiga zaruriy xizmatlarni, shu jumladan tibbiy va ta’lim xizmatlarini yetarli darajada sifatli taqdim eta olmaydi. Shu munosabat bilan, shifoxonalarda, eng yaxshi maktablarda, institutlarda va hokazolarda cheklangan joylar uchun odamlar o‘rtasida raqobat mavjud bo‘lib, bu muassasalarda korrupsiya paydo bo‘ladi.

Tibbiy va ta’lim xizmatlaridan tashqari, O‘zbekistonda davlat xizmatlarini taqdim etishning boshqa ko‘plab sohalarida ularning aholining mavjud ehtiyojlariga mos kelmasligi kuzatilmoqda. Xususan, bu suv, gaz, isitish, sug‘orish tizimlari, asfalt yo‘llar, ko‘priklar, parklar

va o‘yin maydonchalari qurilishiga tegishli. Bu ushbu tuzilmalardagi korrupsiya darajasi boshqalarga qaraganda yuqori ekanligini ko‘rsatishi mumkin, chunki davlat mablag‘lari boshqa maqsadlarda ishlatilgan bo‘lishi mumkin yoki bunday xizmatlarning cheklanganligi sababli birinchi bo‘lib pora berganlarga xizmat ko‘rsatilish holatlarini jadallashtirishi mumkin.

Iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Xo‘jalik faoliyati mexanizmlarini litsenziyalash va tartibga solish korxonalariga mansabdor shaxslarning “imtiyozli rejim”dan o‘z maqsadlarida foydalanish imkoniyatini yaratadi. Natijada, “foйда”ni davlat amaldorlari bilan bo‘lishish mumkin, ular o‘z navbatida litsenziya berish yoki savdo-sotiqni himoya qilishni o‘z zimmalariga oladilar. Bugungi kunda O‘zbekistonda 355 turdagi faoliyat turlari mavjud bo‘lib, ularni amalga oshirish uchun tegishli litsenziya talab etiladi. Bundan tashqari, faoliyatning 140 turi turli davlat organlari tomonidan taqdim etiladigan ruxsat beruvchi hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Shu bilan birga, Davlat xizmatlari markazida va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida murojaat etuvchilar atigi 23 ta litsenziya va ruxsatnoma olish uchun murojaat qilishlari mumkin. Qolgan 475 litsenziya va ruxsatnomalarni olish uchun ular tegishli davlat tashkilotlariga murojaat qilishlari kerak. Bu esa qo‘shimcha xarajatlar, mablag‘lar va vaqtni talab qiladi. “Buyuk kelajak” ekspertlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, so‘rovda qatnashgan tadbirkorlarning 30 foizi litsenziyalar va ruxsatnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish ular duch kelgan 10 ta asosiy muammolardan biri ekanligini ko‘rsatgan.

Davlat sektorida resurslardan foydalanish ustidan nazoratning sustligi. Bugungi kunda davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining umumiy soni 2819 tani tashkil etadi, shundan 2000 tasida davlat 50% dan ortiq ulushga ega. Qoida tariqasida, davlat korxonalarida, xususiyl sektorda bo‘lgani kabi, xodimlarning korxonalar resurslaridan foydalanishi ustidan qattiq nazorat mavjud emas, bu esa korrupsiya va o‘g‘rilik uchun asos yaratadi. Eng ko‘p davlat korxonalari kommunal xizmat, qurilish va

xizmat ko'rsatish, ijtimoiy sohalar, turizm, farmasevtika, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotganini hisobga olib bu sohalarda korrupsiya xavfi yuqori ekanligini taxmin qilish mumkin.

Iqtisodiyotning ko'p tarmoqlari hukumatning alohida qarorlari bilan tartibga solinadi. Investitsiyalarning umumiy hajmida davlat investitsiyalarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Davlat 37 turdagi tovarlar va xizmatlar narxlarini tartibga soladi. Bugungi kunda xususiy sektorda 4 ishchiga davlat sektoridagi 1 ishchiga to'g'ri keladi. Binobarin, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida davlatning nazorat funksiyalarining katta qismining saqlanib qolinishi korrupsiyaning kuchayishi bilan birga keladi. Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar sonining statistikasi shuni ko'rsatadiki, barcha da'volarning 71 foizi davlat muassasalari va korxonalar xodimlariga qarshi qo'zg'atilgan.

Korrupsiya sabablari:

Korrupsiyaning *iqtisodiy sabablaridan* biri davlat xodimlari maoshlarning kamligi, shuningdek, ularga firmalar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadigan katta vakolatlar berilganligi. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga turar joyni imtiyozli taqdim etish dasturini amalga oshirish chog'ida korrupsiya hollari avj oladi. Biroq iqtisodiy sabab asos bo'la oladimi? Ba'zi iqtisodiy rivojlangan mamlakat rahbarlarining, masalan, Koreya davlati prezidenti, Braziliya prezidenti, Pokiston Bosh vaziri, Rossiya Federatsiyasi sobiq mudofaa vazirining, ba'zi gubernatorlarning korrupsiya bo'yicha lavozimidan chetlashtirilganligi iqtisodiy sabab asos emasligidan dalolat beradi.

Institutsional sabablar - davlat idoralari ishining yashirin-yopiqqligi, hisobotdorlikning chalkash og'ir tizimi, qonunchilik ijodkorligi tizimining ochiq va oshkora emasligi, davlatning kadrlar bilan ishlash siyosatidagi kamchiliklar.

Ijtimoiy-madaniy sabablar - fuqarolarning davlat boshqaruv qonunlaridan xabardorlik va ularga munosabati darajasining pastligi, hokimiyat tepasidagilarning o'zboshimchaligiga nisbatan

jamoatchilikning befarqligi va kuchli nazoratning yoʻqligi, jamiyatlardagi umumiy maʼnaviy tubanlashuv jarayonlari, yetarlicha axborotning berilmasligi va fuqarolarning uyushqoq emasligi.

Shu oʻrinda Oʻzbekistonda koʻp narsaning shaxsga bogʻliqligi sharoiti korrupsiya sabablaridan biri ekanligini taʼkidlash zarur. Masalan, Yaponiyada barcha yoʻnalishlarda kim masʼul ekanligini bilmaysiz. Hatto qarorlar va hujjatlarda ham kim nima uchun masʼulligi yozilmaydi. Yaʼni, u yerda butun jamoa ishlaydi. Ish natijalari va qabul qilingan qarorlar uchun hamma birdek javobgar. Va ularda qarorlar pastdan yuqoriga qarab qabul qilinadi. Yaʼni, eng quyi darajadagilar qanday qaror qabul qilinishini bilishadi. Barcha qarorlar pastdan chiqishi sababli, xodimlarning barchasi daxldorlikni his qiladi. Bu holatda rahbariyat uchun ham ijro osonroq kechadi, chunki qarorni ishlab chiqishda hamma birdek qatnashgan.

Korrupsiya omillari:

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida korrupsiyaga olib kelishi mumkin boʻlgan jami 22 ta omil koʻrsatib oʻtilgan boʻlib, ularga, masalan:

- huquqni qoʻllovchilar tomonidan har xil va aniq boʻlmagan talqin qilishga imkoniyat yaratadigan normalarning mavjudligi;
- huquqlar hajmini tanlab oʻzgartirish imkoniyatining mavjudligi, yaʼni organlarning ixtiyoriga koʻra jismoniy va yuridik shaxslar uchun umumiy tartibdan chiquvchi istisnolarning asossiz belgilanishi;
- tegishli huquq va vakolatlarni taqdim qilishning tanlov tartibidan voz kechib, ularni tanlovdan tashqari taqdim qilish tartibining mustahkamlanishi;
- barqaror boʻlmagan, ikki maʼnoli tushunchalardan foydalanish yoki qoʻllanilayotgan atamalarning tushunchasi, ilmiy asoslantirilishi va ishonchliligining mavjud emasligi;
- huquqiy munosabatlarning bir guruh subyektlariga nisbatan boshqalarni teng boʻlmagan, kamsituvchi ahvolga soluvchi afzalliklarning belgilanishi;

– organlarning javobgarligi, shuningdek, ularning harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qilish to‘g‘risidagi normalarning mavjud emasligi kabi omillar kiradi.

O‘zbekistonda korrupsiyaning rivojlanishiga ta‘sir qiluvchi uchta asosiy omil mavjud:

birinchidan, yetarli bo‘lmagan ochiqlik va ma‘lumotning yo‘qligi. Davlat idoralarining yopiqligi sababli ommaviy axborot vositalari ham o‘z vazifalarini to‘liq bajara olmaydilar. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, oshkoralik korrupsiyaning oldini oluvchi birinchi omillardan sanaladi. Agar davlat idorasi yoki mansabdor shaxs jamoat oldida o‘z faoliyati to‘g‘risida — moliyaviy masalalardan tortib ishga qabul qilinishgacha hisobot bersa, bu korrupsiyani kamaytirishga yordam beruvchi ochiqlik bo‘ladi.

ikkinchidan, fuqarolik jamiyati ishtirokining yetishmasligi. Hukumat idorasi, hattoki, agentlik ham hech qachon fuqarolik jamiyati ishtirokisiz korrupsiyaga qarshi samarali kurasha olmaydi. Buning uchun esa kuchli fuqarolik jamiyati zarur. Davlat fuqarolik jamiyatiga ko‘proq suyanishi, unga yordam berishi va rag‘batlantirishi kerak. Agar davlat korrupsiyani ildiziga bolta urishni istasa, fuqarolik jamiyatining ko‘magi davlatning o‘zi uchun muhim yordamdir.

uchinchidan, jazosiz qolish hissi. Albatta, qonunchiligimizda poraxo‘rlik uchun jazo choralari ko‘zda tutilgan. Ammo ma‘lum vaqt o‘tgach, biz pora olganlarni yana davlat organlarida, qaysidir tashkilotlarda ko‘ramiz. Odamlar bunday jiddiy qonunbuzarlik ham qoralanmaydi va hatto qaerdadir kechiriladi degan fikrga borishi mumkin, demak, kimdir: menga ham mumkin, deb o‘ylaydi, agar qo‘lga tushsam ham, ikki yoki uch yil o‘tirib chiqaman va davom etaman degan bemalolikka boradi. Bu ham muhim omil.

Boshqa davlatlarda korrupsiya qattiq jazolanayotganini ko‘ryapmiz. Masalan, Yaponiyada, har doim ham jinoyatga olib kelmaydigan kichik bir rasmiy qoidabuzarlik uchun amaldor iste‘foga chiqadi. U jarima to‘lashi mumkin, ammo u davlat faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan umrbod mahrum bo‘ladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda korrupsiya ko‘proq uchraydimi?

Aslini olganda, gap qaysi (rivojlanayotgan yoki rivojlangan) davlat haqida ketmasin, korrupsiya hodisasi har yerda uchraydi. Biroq u turlicha ifodalanadi. G‘arb mamlakatlarda, masalan, Fransiyada tibbiyot va ta‘lim sohasida korrupsiya deyarli mavjud emas. Bu Fransiyada tibbiy xizmat asosan xususiy sektorda taqdim etilishi bilan bog‘liq, ya‘ni tibbiyot xodimini moliyaviy jihatdan rag‘batlantirish “zarurati“ga hojat qolmaydi, chunki bemor rasman uning xizmati uchun haq to‘laydi. Bunda tibbiy xizmat uchun deyarli barcha to‘lovlar nafaqat xususiy, balki davlat tibbiyotida ham tibbiy sug‘urta bilan qoplanadi. Ko‘rinib turibdiki, xususiy tibbiyot tizimi bu sohada korrupsiyaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlamaydi. Bu mamlakatda ommaviy ravishda xususiy tibbiyotga o‘tishga da‘vat emasligini qayd etmoqchiman, chunki fikrimcha, buning uchun avvalambor tibbiy sug‘urtaning amaliy tizimini yaratish talab etiladi.

Tibbiyot xodimining kam daromadi rivojlanayotgan davlatlarda bu sohada korrupsiya kuzatilayotganligini qisman izohlaydi. Bemorlar tibbiyot xodimlarini moliyaviy rag‘batlantirish zarur va ko‘pincha tabiiy hol deb hisoblaydi. Bemorlarning fikricha, tibbiyot xodimlarning yetarli darajada bo‘lmagan ish haqi shunday g‘ayriqonuniy moliyaviy rag‘bat olishlarini oqlaydi. Afsuski, bu holat, aholining faxrli kasb egalari, shifokorlar va o‘qituvchilarga bo‘lgani ishonch va hurmatiga putur yetkazadi.

BMTning korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi hujjatlari



korrupsiyaga qarshi halqaro kurash kumi

YECHIM:

- 1.**“Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi” (*BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan*);
- 2.** Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar (*BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyusiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan*);
- 3.** Davlat mansabdor shaxslarining Xalqaro xulq-atvor kodeksi (*BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 12 dekabrda qabul qilingan*);
- 4.** BMTning Xalqaro tijorat operatsiyalarida korrupsiya va poraxo‘rlikka qarshi kurash to‘g‘risidagi Deklaratsiyasi (*BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 1996 yil 16 dekabrda tasdiqlangan*)

YEVROPA KENGASHI VA YEVROPA ITTIFOQINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BORASIDAGI HUJJATLARI



- 1)** Yevropa Kengashining korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi (*Strasburg, 1999 yil 27 yanvar*);
- 2)** Yevropa Kengashining korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi Konvensiyasi (*Strasburg, 1999 yil 9 sentyabr*);
- 3)** Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni tozalash, aniqlash, olib qo'yish va musodara qilish to'g'risidagi Konvensiyasi (*Strasburg, 1990 yil 8 noyabr*);
- 4)** Korruptsiyaga qarshi kurashning yigirmata prinsipi (*Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 1997 yil 6 noyabr*);
- 5)** Davlat xizmatchilari uchun Model xulq-atvor kodeksi (*Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2000 yil 11 may*);
- 6)** Siyosiy partiyalarni va saylov kampaniyasini moliyalashtirishda korrupsiyaga qarshi yagona qoidalar (*Yevropa Kengashi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2003 yil 8 aprel*);
- 7)** Moliyaviy tizimdan pulni tozalash maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi YeII Direktivasi (*1991 yil 10 iyun*);
- 8)** Pulni tozalashga qarshi Parij deklaratsiyasi (*Yevropa Ittifoqining pulni tozalashga qarshi parlamentar konferensiyasining Yakuniy deklaratsiyasi 2002 yil 8 fevral*).

KORRUPSIYA OLDINI OLISH

Raqamlashtirishni amalga oshirmasak, korruptsiyani yo'q qila olmaymiz. Eng katta masala — raqamlashtirish».

Sh.M.Mirziyoev

Raqamli iqtisodiyot insonlarsiz boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish orqali korruptsiyani kamaytiradi, soliq tushumlarini «aqli» shartnomalar tuzish orqali ko'paytiradi, byudjet xarajatlarining ochiqqligini oshiradi, yagona elektron platforma orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini beradi.



Raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on hamda qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz.

Davlatning iqtisodiyotga keraksiz aralashuvini kamaytirish

Malakali ishchilarni tanlash

Xodimlarning motivatsiyasi (ish haqi)

Jazo (obro', jarimalar)

Monitoring (audit va aniqlash imkoniyati)

KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAENS (COMPLIANCE CONTROL) NAZORATI

Komplaens (*Iug'aviy ma'nosi muvofiqlik*) nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizim


Komplaens nazorat tizimini joriy etishning 2 modeli



Xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga asoslanadi



Kompaniya va tashkilot faoliyatini mavjud o'ralgan ichki qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etish



O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmon 2020 yil 29 iyun

1



2020–2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“**komplaens-nazorat**”) ni bosqichma-bosqich joriy etish

2



Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi **E-Anticor.uz elektron** platformasini joriy etish

3



Korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus **mobil dasturiy ta’minotni** joriy etish

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan

DAVLAT DASTURI

"Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi PF-6257-son Farmoniga ko'ra

BELGILANGAN VAZIFALAR

Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish

Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to'qashuvining oldini olish

Korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish

Davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish

2020 yil 29 iyun O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi




**KORRUPSIYAGA QARSHI
KURASHISH AGENTLIGI**

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi. Agentlik o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlari yuzasidan Oliy Majlis palatalari oldida hisobdor

AGENTLIKNING HUQUQLARI:

- budjet mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, davlat qarzlari, davlat tashkilotlari tomonidan o‘zlashtiriladigan xalqaro kredit va grant mablag‘lari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilib olish va o‘rganish;
- mol-mulk va daromadlarni deklaratsiya qilish qoidalarini buzgan mansabdor shaxs va fuqarolarga oid materiallarni qonuniy chora ko‘rish uchun vakolatli organlarga yuborish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzasidan davlat va bank sirlariga taalluqli bo‘lgan, shuningdek boshqa qonun hujjatlari bilan himoyalangan ma‘lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olish;
- o‘rganishda bo‘lgan materiallar bo‘yicha jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibxonalari, vaqtincha saqlab turish muassasalari va boshqa tashkilotlarga moneliksiz kirish va hujjatlar bilan tanishish;
- davlat qarzlari, xalqaro kredit va grant mablag‘larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish;
- davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari korrupsiya belgilari aniqlangan qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida sudlarga ariza kiritish;
- korrupsiyaviy huquqbuzarliklar orqali topilgan mol-mulkni davlat daromadiga o‘tkazish to‘g‘risida sudlarga da‘vo arizalar kiritish;
- davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga ko‘rib chiqilishi



Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan illat - bu korrupsiya balosidir.

Korrupsiyani pasaytirishning 3

yondashuvi:

- qonunlar va ularni ijro etish talabchanligini oshirish, shu tariqa, jazolash riskini oshirish mumkin.
- mansabdor shaxslarga qonun va qoidalarni buzmaganda holda o'z daromadlarini oshirish imkonini beradigan iqtisodiy mexanizmlar yaratish mumkin.
- bozorlar va raqobatning rolini kuchaytirish, shu tariqa korrupsiyadan potensial foyda olish hajmini pasaytirish mumkin.



ICHKI NAZORAT

- Boshqaruv apparatining o'zida mavjud bo'lgan ichki mexanizmlar va stimullar: mansabdor shaxslarning o'z majburiyatlarini ijro etishi borasida aniq standartlar va har bir xizmatchi ustidan qattiq nazorat kiradi. Nazoratni ta'minlash maqsadida mustaqil ravishda faoliyat yuritadigan maxsus boshqaruv ajratib ko'rsatiladi.

TASHQI NAZORAT:

- mustaqil sud tizimi, OAV va so'z erkinligi

HUQUQIY MADANIYAT - jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonulardan aholining xabardorlik darajasi va huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lish



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 9 yanvardagi "*Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida*"gi 5618- sonli Farmoni, va shu hujjat asosida tasdiqlangan "*Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi*" hamda 2019 yil 13 dekabrda "*Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*"gi PQ-4551-son qarori

Huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda:

1. Davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha malakasini oshirish.
2. Davlat tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan siyosat **ishlab chiqish**.
3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xodimlarida soha bo'yicha tajriba shakllantirish.
4. Aholining sohadan xabardorligiga qaratilgan tadbirlar o'tkazish.
5. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalarini soha bo'yicha o'qitish.
6. Yoshlarni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash.



«Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunning **5-moddasida** aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish birinchi vazifa qilib belgilangan.

YECHIM:

Pora olmaydigan odamni qanday tasavvur qilasiz?

U halol, odobli, qonunlarga rioya qiladigan, ochiq va hisobdor, kompetent – nafaqat bilim, balki tajribaga ham ega. Albatta, u o‘z ishining ustasi. Odatda bunday odamlar o‘z obro‘-e‘tibori, uni yaxshi odam deb bilishlarini, o‘zlaridagi mas‘uliyat va qat‘iyat bilan erishgan mavqeini qadrlashgani uchun ham korrupsion harakatlarda ishtirok etmaydilar. Bordi-yu, u korrupsiya avj olgan muhit yoki jamiyatga tushib qolsa, qanday yo‘l tutish kerakligini o‘zi hal qiladi. Bunday sharoitda nimalar qilish mumkinligining turli variantlari bor. Bir holatda, agar bu kuchli shaxs bo‘lsa, u boshqalarga o‘rnak bo‘lib, atrofidagi muhitni o‘zgartirishga harakat qiladi, bunga toqat qilmasligi, murosasizligi bilan mavjud stereotiplardan qutulishga urinadi, shu va boshqa savollar, muammolarga to‘g‘ri yechimlar taklif qiladi, uning muqobilini qidiradi. Boshqa holatda esa, chetga chiqish va o‘zini go‘yoki bu unga tegishli emasdek qilib ko‘rsatish, jimgina kuzatish varianti bor.

Korrupsiyaga qarshi qanday kurashish kerak?

Singapur va Honkong tajribasiga ko‘ra antikorrupsion ta‘lim bog‘cha yoshidagi bolalarni qamrab oladi. Ularga hikoyalar, risolalar, plakatlar, multfilm va videoroliklar, hatto, seriallar orqali tushuntirib berishadi. Halollik, odob-axloq nimaligi, nima mumkin, nima mumkin emasligi, qanday yo‘l tutish kerakligi to‘g‘risida ularga savollar beriladi. Bu haqda ta‘lim davrining boshidan oxirgi bosqichiga qadar uqdiradilar. Natijada, axborot esda qoladi va bu axborot bola uchun odatiy holga aylanadi va kelgusida bolalar katta hayotga qadam qo‘yganlarida o‘zlarning xavfsizligini ta‘minlashga qaratilganligini anglaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi “Transparency International” xalqaro tashkilotining reytingida o‘z o‘rnini 7 pog‘onaga yaxshilab, 2020-yil 180 ta davlat orasida 146-o‘rinni egalladi. Xo‘sh, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi samarali tizim yaratish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– 2005-yil 23-martda O‘zbekiston Respublikasi BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyaga (2000-yil 15 -noyabr) qo‘shildi;

– 2008-yil 7-iyulda O‘zbekiston Respublikasi BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyaga (2003-yil 31-oktyabr) qo‘shildi;

– 2010-yil martda Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentyabr) qo‘shildi;

– 2011-yil 13-dekabrda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimini (Moskva, 2011-yil 16-iyun) ratifikatsiya qildi;

– 2017—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni qabul qilindi (korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish vazifasi belgilangan);

– O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi Qonun qabul qilindi;

– BMTTDning O‘zbekiston va Adliya vazirligi bilan hamkorlikdagi “O‘zbekistonda samarali, hisob beruvchi va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish” loyihasi 2018-yilning 22-martida ishga tushirildi hamda O‘zbekiston hukumati hamda BMTTD o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda asosiy ko‘priikka aylandi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2019–2020-yillarda Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi tastiqlandi (mazkur Davlat dasturlari ijrosi yuzasidan davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli

muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan 20 ga yaqin qonun, 100 ga yaqin Prezident va Hukumat qarorlari qabul qilindi);

– 2020-yil 29-iyunda O‘zbekiston Respublikasida «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» farmoni qabul qilindi;

– 2021-yil 6-iyulda «Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralari samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi” tashkil etildi.

Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta’minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish kabi vazifalar yuklatildi.

Agentlikning huquqlari:

- budget mablag‘larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, davlat qarzlari, davlat tashkilotlari tomonidan o‘zlashtiriladigan xalqaro kredit va grant mablag‘lari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog‘liq materiallarni talab qilib olish va o‘rganish;
- o‘z vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;
- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarini, shuningdek, anonim murojaatlarini ham ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;
- davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida korrupsiya holatlarini o‘rganish;
- offshor hududlar orqali amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar, xayriya, sport va boshqa tashkilotlar tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish alomatlari mavjud holatlarni va korrupsiya holatlarini o‘rganish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalar va ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan korxonalar, shu jumladan, banklarda korrupsiyaga qarshi kompleks nazorat tuzilmalar xodimlarini lavozimga tayinlash va ozod qilishda kelishish hamda faoliyatini muvofiqlashtirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tizimli korrupsiyaning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish maqsadida qonunchilik, shu jumladan, jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq jinoyat ishlari materiallarini, shuningdek, vakolati doirasida tekshiruv, surishtiruv, tergov va sud materiallarini talab qilib olish va o‘rganish;
- xatti-harakatlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari bo‘lgan shaxslarga nisbatan to‘plangan materiallarni qonuniy chora ko‘rish uchun vakolatli organlarga yuborish;

- o‘ziga yuklatilgan vazifalarni tezkor va o‘z vaqtida bajarish maqsadida vazirlik va idoralarning ma’lumotlar bazasi, ro‘yxati va boshqa ko‘rinishdagi axborot tizimidan foydalanish;
- obyektни deklaratsiya qilish, uning narxini (bahosini) ekspertizadan o‘tkazish tartibini belgilash;
- mol-mulk va daromadlarni deklaratsiya qilish qoidalarini buzgan mansabdor shaxs va fuqarolarga oid materiallarni qonuniy chora ko‘rish uchun vakolatli organlarga yuborish;
- davlat xizmatchilarining mol-mulki va daromadlarni deklaratsiya qilish yo‘riqnomasi hamda shaklini tasdiqlash;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar yuzasidan davlat va bank sirlariga taalluqli bo‘lgan, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari bilan himoyalangan ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olish;
- korrupsion huquqbuzarliklar oqibatida orttirilgan mol-mulklarning qaytarilishi bo‘yicha harakat va ishlarni muvofiqlashtirish;
- ko‘rib chiqilayotgan ishlar bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning kuch va vositalaridan foydalanish;
- o‘rganishda bo‘lgan materiallar bo‘yicha jazoni ijro etish muassasalari, tergov hibsonalari, vaqtincha saqlab turish muassasalari va boshqa tashkilotlarga moneliksiz kirish va hujjatlar bilan tanishish;
- davlat qarzlari, xalqaro kredit va grant mablag‘larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ma‘muriy surishtiruv harakatlari o‘tkazish;
- O‘zbekiston Respublikasining obro‘sigacha salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan hamda davlat va jamiyatning hayotiy muhim manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadigan korrupsion huquqbuzarliklar yuzasidan tezkor qidiruv, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini olib borish;
- davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalarni kiritish;

– davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari korrupsiya belgilari aniqlangan qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida sudlarga ariza kiritish;

– korrupsiyaviy huquqbuzarliklar orqali topilgan mol-mulkni davlat daromadiga o‘tkazish to‘g‘risida sudlarga da’vo arizalar kiritish;

– vakolati doirasida o‘rganilayotgan masalalar yuzasidan ishga aloqador shaxslarni chaqirish va tushuntirish olish;

– Agentlikning taqdimnoma, ogohlantirish va so‘rovlariga vaqtida javob bermaslik yoxud e’tiborsiz qoldirish holatlari yuzasidan ma’muriy bayonnomalar tuzish;

– davlat organlari, tashkilotlari va ularning mansabdor shaxslariga ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida ogohlantirishlar hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko‘rish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma, so‘rov va murojaatlarining o‘n kun ichida ko‘rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shart (Agentlikning ma’lumotiga ko‘ra sudlar tomonidan 2020-yil davomida korrupsiya bilan bog‘liq (JK 205-214, 243-moddalari) jami 2 270 nafar shaxsga nisbatan 1 502 ta jinoyat ishi ko‘rib chiqilgan. 2020-yilda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar yuzasidan 610 ta shaxsga axloq tuzatish ishlari, 539 ta shaxsga ozodlikni cheklash, 403 ta shaxsga jarima, 300 ta shaxsga ozodlikdan mahrum qilish, 13 ta shaxsga muayyan huquqdan mahrum qilish va 4 ta shaxsga nisbatan majburiy jamoat ishlari kabi jazolar qo‘llangan. Shuningdek, 47 ta shaxs shartli hukm qilingan, 151 shaxsga jazo qo‘llanilmagan, 56 ta shaxs esa jazodan ozod qilingan).

Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilandi, xususan:

– 2020–2021-yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”)ni bosqichma-bosqich joriy etish;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek, ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

– korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.

Korrupsiyaga qarshi komplaens (compliance control) nazorati nima? Komplaens (lug'aviy ma'nosi muvofiqlik) nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Komplaens nazorat tizimini joriy etish bo'yicha samarali tajribaga ega mamlakatlar amaliyotiga muvofiq ushbu xizmat eng keng tarqalgan quyidagi ikkita modeli qo'llaniladi:

Kompaniya va tashkilot faoliyatini faqatgina mavjud o'rnatilgan ichki qonun va qoidalarga muvofiq tashkil etishga qaratiladi. Bunda komplaens xizmatining joriy etilishi minimal qoidalar bilan cheklanadi.

Komplaens nazorat tizimining tashkil etilishi korrupsiya xavflarni baholashda xalqaro tashkilotlarning (Bazel bank qo'mitasining tavsiyalari, Xalqaro komplaens assotsiatsiyasi) tavsiyalariga asoslanadi va bu modelda komplaens xizmatning maqomi, vazifasi, faoliyat doirasi asosan, xalqaro standart va tavsiyalarga asoslanadi.

Mazkur ikki modelning o'zaro farqli jihati, birinchi modelda komplaens nazorat tizimini o'zida tashkil etayotgan kompaniya yoki tashkilot mavjud qonunlik me'yorlari yoki o'zi ishlab chiqqan ichki qoidalar bilan tartibga solinadi va joriy etishning minimal talablari bilan cheklanadi. Ikkinchi modelda esa faoliyatni tashkil etish nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro standartlar va tashkilotlarning tavsiyalari asosida joriy etiladi. Ushbu shaklda ichki qonunchilik normalarida

koʻzda tutilmagan korrupsiya xavflariga faoliyat mos keladigan qoʻshimcha profilaktik qoidalarni joriy etish mumkin boʻladi.

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan boʻlsa-da, huquqni qoʻllash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bogʻliq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2017–2019-yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning pora olishi bilan bogʻliq jinoiy javobgarlik masalasi hal qilinganligi, 2019-yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bogʻliq 590 ta jinoyat ishlari qoʻzgʻatilganligi, korrupsiyaga qoʻl urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining, asosan, tibbiyot, taʼlim, davlat xizmati koʻrsatish, xususan, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruxsat berish bilan bogʻliq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan boʻlsak, koʻplab davlatlarda, xususan, Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati toʻgʻrisida”gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida”gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek, sudyalarning xatti-harakat meʼyorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Eʼtiborli jihati shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin boʻlgan sovgʻa yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qoʻyilgan. Masalan, AQSh da ushbu miqdor 20 AQSh dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul koʻrinishidagi sovgʻalar qabul qilishi qatʼiyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat koʻrsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qogʻozlar kabi taʼlovlarni olishi taʼqiqlangan

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo'lib, unga ko'ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan, turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg'alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg'alar, vazirlikka o'tkaziladigan tartib joriy qilindi.

Korrupsiya hodisalarining oldini olish uchun:

Iqtisodiyotga davlatning keraksiz aralashuvini kamaytirish. Davlat muassasalarida ishchilar sonini optimallashtirishga yo'naltirilgan bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan strategiyani ishlab chiqish kerak, bu esa keyinchalik ushbu tashkilotlarda ish haqining oshirilishiga olib keladi.

Malakali ishchilarni tanlash. Bilim darajasi va korrupsiya o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Malakaliroq ishchilarning pora olish ehtimoli kamroq. Bunday sharoitda xodimlarni o'z bilimlari asosida yollashga yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Shuning uchun davlat xizmatiga kirishga da'vogarlariga nisbatan yagona talablarni ishlab chiqish va ochiq tanlov imtihonlari tizimini joriy etish zarur. Masalan, Janubiy Koreyada hukumat vaqti-vaqti bilan davlat xizmatchilarini tekshiradi. Davlat xizmatchisining 5-darajasini olish uchun imtihon uch bosqichdan iborat. Birinchi qadam nomzodlarning umumiy bilimlarini sinab ko'rishdir. Imtihonning ushbu bosqichining predmetlari huquq, tarix, chet tili va boshqalar. Ikkinchi bosqich nomzodlarning kasbiy bilimlarini sinab ko'rishdir. Har bir professional guruh turli predmetlarni bilishni talab qiladi, biroq bular iqtisodiyot va huquq kabi umumiy fanlardir. Uchinchi bosqichda nomzodning shaxsiy xususiyatlarini tekshirish uchun suhbat o'tkaziladi.

Xodimlarning motivatsiyasi (ish haqi). Nafaqat iqtisodiy nazariya, shuningdek, amaliyot ham shuni ko'rsatadiki, ish haqi darajasi korrupsiya sxemalarida ishtirok etishning afzalliklari bilan taqqoslanadigan, qo'lga tushish xavfini hisobga olmaganda,

korrupsiyaning oldini oluvchi asosiy omil hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, davlat xizmatchilariga xususiy sektor bilan raqobatdosh ish haqi taklif qilinishi kerak. Shuningdek, davlat xizmatchilarining ish faoliyatini baholash tizimi va yuqori lavozimdagi ishchilarga ularning faoliyati samaradorligiga qarab maosh to‘lash tizimini joriy etish zarur.

Jazo (obro‘, jarimalar). Korrupsiya sxemalarida ishtirok etish xarajatlarining kamligi sababli, korrupsiya faolligi o‘smoqda. Korrupsiya uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar korrupsiyani yengishda alohida rol o‘ynashi mumkin, chunki ko‘p hollarda xodim uchun korrupsiya xarajatlari uning asoratlaridan kattaroqdir.

Monitoring (audit va aniqlash imkoniyati). Ko‘pgina davlatlar “pora berish” orqali korrupsiyaga qarshi kurashda audit rolini kuchaytirish zarurligini tan olishadi. Buxgalterlar va auditorlarning global korrupsiyaga qarshi strategiyaga qo‘shadigan hissasini muhokama qilish uchun Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi “Buxgalteriya ishi va korrupsiyaga qarshi kurashish” ma’ruzasini e’lon qildi. Yevropa Kengashining Korrupsiyaga oid Jinoyat huquqi to‘g‘risidagi konvensiyasi mamlakatlardan har qanday davlatning mansabdor shaxslariga va’da berish, taklif qilish yoki biron-bir asossiz ustunlik berish uchun jinoiy javobgarlikka olib keladigan milliy qonunlarni qabul qilishga chaqiradi. Bunday jinoyat, shuningdek, buxgalteriya hisobi va hisoboti tartibini qo‘llagan holda davlat xizmatchilarining poraxo‘rligi bilan bog‘liq xatti-harakatlar to‘g‘risida qasddan noto‘g‘ri taqdim etilgan deb hisoblanishi kerak.

Texnologiyalar (elektron hukumat, jamoat nazorati). “Elektron hukumat”ning to‘laqonli ishlashi davlat xaridlarining aksariyat qismini va aholi, biznes va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning butun tizimini shaffof qilish imkonini beradi va bu tarmoqning hajmini sezilarli darajada kamaytiradi. Ikkinchisi biznesni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Singapurda ko‘plab zarur xizmatlarni - pasport va tug‘ilganlik haqidagi guvohnomaning zarur shakllarini uyda to‘ldirib, tegishli organlarga elektron pochta orqali yuborish orqali olishingiz

mumkin. Hukumat bunday xizmatlarni, ya'ni hujjat turlarini internet orqali taqdim etishni odatiy tarz deb qabul qiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, agar fuqaro ushbu xizmatlarni olish uchun muassasaga shaxsan tashrif buyursa, u holda ushbu muassasaga alohida ehtiyojsiz kelganlik uchun unga jarima solinadi.

Rivojlangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar kuchaytirilishining sababi nimada?

Matbuotda xalqaro korrupsiya ayblovlari bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan Fransiyaning Technip, Alstom, Total yirik korxonalari bilan bog'liq bir necha shov-shuvli voqealar keng yoritilgan. Mazkur kompaniyalar rivojlangan mamlakatlarda o'tkazilgan tenderlarda ishtirok etganida shartnomalarni "olishning mahalliy usuli"ga asoslangan holda ularni qiziqtirayotgan shartnomalarni olish uchun "konvert" usulini qo'llagan.

Ushbu shov-shuvli ishlargacha Fransiya uzoq vaqt IHTT va Transparency International tomonidan Fransiya korxonalari, xususan, xorijda, jumladan, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan mamlakatlarda faoliyat yuritadigan kompaniyalar tomonidan korrupsiya harakatlariga qarshi amaliy chora-tadbirlarni qo'llamaganlikda ayblanar edi. Fransiya yetakchi korxonalari katta jarimalar qo'llagan holda Amerika instansiyalari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilishi ushbu mamlakat uchun bu boradagi muhim turtki bo'ldi. Masalan, Technip 240 million AQSh dollari, Total — 245 million AQSh dollari, Alstom — 772 million AQSh dollari va Alcatel-Lucentga- 92 million AQSh dollari miqdorida jarimaga tortildi. Katta jarimalardan tashqari amerikalik sudyalar bu kompaniyalarga korrupsiyaga qarshi kurash dasturining samaradorligini tekshirish maqsadida uch yil mobaynida mustaqil audit o'tkazish majburiyatini yukladi. Bunga muvofiq, sudlangan kompaniyalar Amerika instansiyalari buyruqlari bo'yicha ish tutishga majbur edilar. Amaliyot ko'rsatganidek, ekstra-hududiy vakolatga ega bo'lgan (AQSh hududining chegarasidan chiquvchi) talabchan va qat'iy Amerika odil sudlovi Fransiyada 2016-yilda korrupsiyaga qarshi kurash qonuni qabul qilinishiga turtki bo'ldi. Aynan shu sxema bo'yicha

Britaniyaning BAE Systems va Germaniyaning Siemens kompaniyalariga qarshi qoʻllanilgan jiddiy AQSh sanksiyalaridan soʻng Buyuk Britaniya hamda Germaniyaning korrupsiyaga qarshi kurash boʻyicha qatʼiy qonunchiligi qabul qilindi. Aslida, aynan Amerikaning jiddiy sanksiyalari “xavfli“ sektorlarda faoliyat yuritadigan (shu jumladan, davlat xaridlari hisobiga yashaydigan yoki korrupsiya rivojlanayotgan davlatlarda faoliyat yuritadigan) barcha gʻarb transmilliy kompaniyalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi qabul qilinishiga olib keldi.

Shunday qilib, Fransiyaning korrupsiyaga qarshi kurash qonuni nafaqat davlat korxonalarini, balki xususiy korxonalaridan Fransiya korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan amalga oshirilishi nazorat ostiga olinadigan korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha tegishli kompleks dasturlar qabul qilishni talab etadi.

Fransiyada korrupsiyaga qarshi kurash dasturini 500 nafar kishidan ortiq shtat birligi yoki muayyan mulk oborotiga ega har qanday korxonalar yoki tashkilot joriy etishga majbur. Bu dastur sakkiz muhim unsur asosida tuzilishi kerak. Bular:

1. Nafaqat korxonalar, balki uning tashqarisida ham xodimlarning man etilgan xulq-atvor koʻrinishlarini namoyon etadigan, korrupsiya harakatlarining turli shakllarini aniq belgilaydigan Xulq-atvor Kodeksi.

2. Xulq-atvor Kodeksi buzilgan hollarda tashkilot/korxonalar xodimlarini javobgarlikka tortish imkonini beruvchi xulq-atvor sanksiyalarining qatʼiy tartibi.

3. Tashkilot yoki korxonaning xulq-atvor kodeksiga zid boʻlgan xulq-atvor yoki vaziyat mavjudligi toʻgʻrisida maʼlumot yigʻishga yordam beruvchi xabarchi-xodim himoyasini kafolatlaydigan xabar qilishning ichki anonim yaʼni yashirin tizimi.

4. Tashkilot yoki korxonalar faoliyati sohasiga bogʻliq holda, korrupsiyaga oid muhim xatarlarlarini aniqlab, tahlil qilib belgilaydigan muntazam yangilanib turadigan xatarlar kartografiyasi.

5. Mijoz va taʼminotchilar, shuningdek, vositachilarning ehtimoliy korrupsiya xavflarini baholash amaliyotlari.

6. Korrupsiya dalillarini yashirish uchun buxgalterlik kitobi, reestr va hisob-kitob yozuvlaridan foydalanmaslik kafolatini ta'minlovchi ichki yoki tashqi buxgalterlik nazorati.

7. Korrupsiya xavfiga uchrash ehtimoli yuqori bo'lgan hamda mavqeyidan foydalanish xavfidan xoli bo'lmagan rahbar va xodimlarni muntazam ravishda majburiy o'qitish uchun o'quv rejasi.

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlar bo'yicha ijrosini ichki nazorat va baholash tizimi.

Bunda so'z tashkilot yoki korxonaning o'zi tomonidan amalda bajarilganligi muntazam nazorat qilinishi kerak bo'lgan kompleks dastur to'g'risida bormoqda. Bundan tashqari, Fransiya Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurash agentligi istalgan vaqtda har qanday davlat tashkiloti yoki xususiy korxonadan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi joriy etilgani yuzasidan tekshiruv o'tkazish vakolatiga ega. Shuningdek, agentlik korrupsiyaga qarshi kurash dasturiga muvofiq kelmasligi yoki unga rioya qilinmagani uchun ularga nisbatan jiddiy ma'muriy sanksiyalar qo'llash vakolatiga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashda faqatgina jazo choralari qo'llash samara keltirmasligini e'tiborga olish lozim. Fransiyada agar javobgar kompaniya yoki tashkilot Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi nazorati ostida belgilangan muddatda o'z korrupsiyaga qarshi kurash dasturini ko'rib chiqish va takomillashtirish majburiyatini olsa, jinoiy va ma'muriy sanksiyalarni cheklash imkoniyati mavjud.

Bu mexanizm AQShda Foreign Corrupt Practice Actga muvofiq va Buyuk Britaniyada Anti Bribery Actga muvofiq allaqachon qo'llanilayotgan mexanizmga o'xshash bo'lib, amaliyotda kutilgan ijobiy natijalarni bermoqda.

Jahon tajribasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zini oqlagan boshqa usullar ham mavjudmi?

Yuqorida qayd etilganidek, jazo choralari samarasi uncha muhim emas. Korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy e'tibor uning oldini olish choralariga qaratilishi kerak. Yuqorida qayd etilgan korrupsiyaga qarshi

kurash dasturi aynan uning oldini olish turiga kiradi, shuningdek, korxonada g'ayriqonuniy xulq-atvorlarning deteksiya usuli hisoblanadi. Lekin har qanday usul aholining ongidagi o'zgarishlarsiz, samarasiz bo'lib qolaveradi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar maktab yoshidan odob-axloq bo'yicha maqsadli ta'lim dasturlarini o'z ichiga oladi. Ular mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar keltiruvchi va aholi turmush darajasiga ta'sirini salbiy ko'rsatuvchi korrupsiya harakatlarining yaqqol misollari va ularning oqibatlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Bu mavzuni nafaqat sinfda, shuningdek, maktabdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'qitish joiz. Bunday darslar o'quvchilar "yaxshi sovg'alar evaziga yaxshi baholar" tamoyilini odatiy me'yor sifatida qabul qilayotgan bir paytda o'ta zarur. Bunday darslar, ko'p yillar mobaynida qonunga zid ravishda sovg'alar qabul qilishni amalda qo'llab kelayotgan xodimlar tomonidan o'qitilishi samarasiz kechadi. Shuning uchun korrupsiya va uning oqibatlari to'g'risidagi mavzuga bag'ishlangan mashg'ulotlarni joriy etish bilan parallel ravishda o'quv yurtlari xodimlari tomonidan sovg'alar va boshqa ko'rinishdagi mukofotlar olish masalalarini tartibga soluvchi, yuqorida eslatib o'tilgan maktablarda ichki reglamentning qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mentalitetni tubdan o'zgartirishni ta'minlashga amaliy yondashuvda pora berishni fosh qilish zamonaviy tendensiyalardandir. Masalan, fuqaro huquqni muhofaza qilish organi xodimiga pora taklif qilsa, o'sha shaxs nafaqat uni olishdan bosh tortishi, balki pora berishga urinish to'g'risida tegishli ravishda xabar berishi majburiy bo'lgan sxemadir. Amaliyot va mentalitetni o'zgartirishga yo'naltirilgan ayrim chora-tadbirlar bugunning o'zida kutilgan natija berayotganini ta'kidlash joiz.

Bularning barchasi quyi va o'rta mansab darajalarida pora, sovg'a olish, urug'-aymoqchilikka taalluqli. Yuqori darajadagi amaldorlar o'rtasida korrupsiya holatlariga kelsak, G'arb mamlakatlarida quyidagi choralar samarali amalga oshiriladi:

– davlat amaldorlari va ularning oila a'zolari daromadi va mulki haqidagi deklaratsiya;

– korrupsiya yoki talon-taroj qilish holatlariga yo‘l qo‘yilganlikda gumon qilinganda bu haqda anonim, ya’ni yashirin xabar berish mexanizmi;

– bank operatsiyalarida sarmoya yuvish ustidan nazorat mexanizmlari.

Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi:

Davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha malakasini oshirish.

Bir qator davlatlarda mas’ul xodimlar uchun kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning yo‘nalishlari bo‘yicha majburiy qisqa muddatli o‘quv kurslari joriy etilgan.

Singapur, Koreya Respublikasi, Sloveniya, Estoniya, Latviya kabi davlatlarda korrupsiyaga qarshi kurashuvchi idoralarning elektron platformalariga soha bo‘yicha kurslar joylashtirilgan. Mansabdor shaxslar ixtiyoriy tarzda shu kurslarda masofaviy o‘qiydi.

Davlat tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan siyosat ishlab chiqish.

Aksariyat rivojlangan davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) korrupsiyaning oldini olish maqsadida davlat organlari veb-saytlariga: korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; tizimda amalga oshirilgan ishlar; yuz berishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy vaziyatlar; manfaatlar to‘qnashuvi; kasb etikasi buzilishining oldini olish; mas’ullarning ishonch telefonlari va elektron pochta manzillari; xodimlar sodir etgan nojo‘ya harakatlar va ularga qo‘llangan jazo choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirib boriladi.

Avstraliyadagi barcha idoralarda xodimlarning korrupsiya holatlarida o‘zini tutishi va vaziyatlarni bartaraf etishi bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi online maslahat tizimi joriy etilgan. Bundan tashqari har ikki yilda mamlakat miqyosida «Davlat idoralarida korrupsiyaga qarshi kurashish» (APSACC) bo‘yicha konferensiyalar o‘tkaziladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarida soha bo‘yicha tajriba shakllantirish.

Bunda davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining tajribasini shakllantirishni tegishli xizmatlar amalga oshiradi. Xususan, AQSh, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniyada ushbu vazifalarni idoraviy ichki nazorat bo‘linmalari (inson resurslari bo‘limi, rejim va ichki xavfsizlik, korrupsiyaga qarshi komplaens xizmatlari (complaens officer) xodimlari) bajaradi. Mazkur bo‘linmalar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha o‘qishlar, treninglar, seminarlarni tashkil etadi. Fransiyaning 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish milliy rejasida mansabdor shaxslar uch yilda bir marta majburiy kurslarda o‘qishi belgilangan.

Aholining sohadan xabardorligiga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish.

Singapur, Malayziya, Koreya Respublikasi, Latviya kabi davlatlarda vakolatli davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha aholiga turli tadbirlar (forum, o‘qishlar, ma’rifiy tadbirlar) o‘tkazadi. Qozog‘iston, Estoniya va boshqa davlatlarda vakolatli idoralar jamoatchilik uchun muntazam brifinglar tashkil qiladi. Tadbirlarda korrupsiyaga qarshi siyosatning maqsadi, strategiyasi, chora-tadbirlarning bajarilishi, amalga oshirilgan ishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy hisobotlar taqdimotlari bo‘ladi. 2004-yildan Braziliyada korrupsiya bo‘yicha vakolatli idora – hisob palatasining «Davlat xaridlarini nazorat qilishda jamoatchilikning o‘rni» dasturi joriy etilgan. Dastur ijrosiga jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari vakillari, talabalar, OAV, professor-o‘qituvchilar jalb qilingan. Unda jamoatchilik vakillariga davlat xaridlarini nazorat etish yuzasidan bilim va ko‘nikmalar o‘rgatiladi. Buyuk Britaniyada 2010-yildan «Transperensi Interneshnl» (Transparency International), «Korner Xaus» (The Corner House), «Britaniya korrupsiyaga qarshi forumi», «Pablik Konsern et Uork» (Public Concern at Work) tashkilotlari aholining turli qatlamlariga soha bo‘yicha maxsus kurslar, trening va seminarlar tashkillashtiradi.

Oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalarini soha bo'yicha o'qitish.

BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (GJBB) «Odil sudlov uchun ta'lim» (E4J) tashabbusi doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish o'quv modullarini ishlab chiqqan. Ushbu tashabbus a'zolari sifatida 100 dan oshiq davlat universitetlari vakillari korrupsiyaga qarshi kurash, davlat xizmatida halollik, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish kabi 14 ta maxsus modul doirasida bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bolgariya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Latviya, Moldova, Rossiya universitetlari tashabbus a'zolaridir. Italiyada korrupsiyaga qarshi kurashish idorasi prezidentning maxsus farmoni asosida barcha o'rta maxsus bilim yurtlarida «Fuqarolik va konstitutsiya» kursi doirasida yoshlarga soha bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, davlat xizmatida halollik, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish masalalarini o'qitadi. Xorijiy davlatlar amaliyotida korrupsiyaga toqatsizlik hissi ta'limning quyi bo'g'inidan boshlab barcha bosqichlarini qamrab oladi. Bunda an'anaviy targ'ibot usullaridan tortib zamonaviy innovatsion usullargacha qo'llaniladi.

Mavrikiy davlatida oliy ta'lim talabalari uchun korrupsiyaga qarshi kurash mavzusida konferensiya tashkil etiladi. Unda talabalar korrupsiya muammolarini milliy va xalqaro darajada bartaraf etish masalalarini muhokama qilib, tavsiyalar ishlab chiqishadi. Oliy o'quv yurtlarida har yili korrupsiyaga qarshi kurash mavzusida eng yaxshi chiqish tanlovi o'tkaziladi va televideniya namoyish etiladi.

Panamada parlament hamkorligida talabalar uchun «Korrupsiyaga qarshi yoshlar assambleyasi» tashkil etilgan. Unda samarali boshqaruv va korrupsiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, qurilish, transport, sport sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Venesuelaning 13 shtatida «Maktab bosh prokurori» loyihasi amalga oshiriladi. Unda 9-14 yoshdagi o'quvchilardan biri bir yil muddatga maktab bosh prokurori etib saylanib, maktab budjeti, ta'lim sifati, davomat, o'qituvchilarning odob-axloq qoidalariga rioya etishi

to'g'risida hisobot va ma'ruza qiladi. Yil oxirida ta'lim boshqarmasiga muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar yuboradi.

Braziliyada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha da'vat, qonun normalari o'quv qurollarida karikatura, shiorlar shaklida tasvirlanadi. Ushbu chora-tadbir orqali o'quvchilarning dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatilishi ko'zda tutilgan.

Pokistonda sohaga oid targ'ibot komiks, chizma kitoblar, sport musobaqalari chiptalarida, tovarlar reklamasida amalga oshiriladi.

Malayziyada korrupsiyaga qarshi kurashish tashviqoti «Upin va Ipin» interaktiv multfilmi bilan qilinadi. Shuningdek, ta'lim vazirligining portalida maxsus ta'lim materiallari joylashtiriladi.

Ekvador oliy ta'lim muassasalarida talabalar guruhidan «Shaffoflik brigadalari» shakllantirilgan. Talabalar davlat idoralarining ochiqligini nazorat qiladi. Ularga davlat idoralarida korrupsiya bilan kurashish holati, xodimlarning qonun talablari va kasb qoidalariga rioya etishi hamda murojaatchilarga maslahat berishini kuzatish huquqi berilgan.

Serbiyada BMT Taraqqiyot dasturi ko'magida jurnalistika, siyosatshunoslik, sotsiologiya fakultetlari talabalari Facebook, Twitter va boshqa tarmoqlarda «Ijtimoiy tarmoqda korrupsiyaga qarshi jurnalistik surishtiruv» loyihasini amalga oshiradi. Unda davlat tashkilotlaridagi muammolar tahlil qilinib, sohaga mas'ul tashkilotlarga umumiy ma'lumotnoma taqdim etiladi.

AQShda maktab o'quvchilari o'rtasida «mock trial» (sud jarayoni imitatsiyasi) deb nomlanuvchi tadbirni o'tkazish odatga aylangan. Unda maktab o'quvchilari sud jarayonini tashkil qilib, advokat, prokuror, sudya, guvoh, jabrlanuvchi va boshqa rollar taqsimlanadi va ssenariylar orqali ijro qilinadi. Shuningdek, o'quvchilar ijtimoiy tarmoqlarda maktab bilan bog'liq guruhlariga a'zo bo'lishadi. Huquqbuzarlikning oldini olish, huquqiy ong va madaniyatni oshirishga qaratilgan targ'ibot materiallarini maktab hamda sinf doirasidagi Telegram (boshqa ijtimoiy tarmoqlar ham) guruhlariga tarqatish amaliyoti joriy qilingan. AQSh hukumatining normativ-huquqiy hujjatlar veb-portalida har bir

normativ-huquqiy hujjatni nafaqat o‘qib chiqish, balki audio orqali eshitish imkoniyati ham mavjud.

Aksariyat rivojlangan davlatlarda (AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) korrupsiyaning oldini olish maqsadida davlat organlari veb-saytlariga: korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; tizimda amalga oshirilgan ishlar; yuz berishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy vaziyatlar; manfaatlar to‘qnashuvi; kasb etikasi buzilishining oldini olish; mas’ullarning ishonch telefonlari va elektron pochta manzillari; xodimlar sodir etgan nojo‘ya harakatlar va ularga qo‘llangan jazo choralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirib boriladi.

SAVOLLAR:

Агар коррупцияга барҳам берилмаса,
эртанги кунимиз қандай бўлади



- “Foreign Corrupt Practice Actga” va “Anti Bribery Actga” korrupsiyaga qarshi usulining mexanizmi?
- O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishda qo‘llanilayotgan usullardan biri – **komplaens** nazorat. Bu qanaqa usul va qanchalik samarali?
- Davlat xizmatchilarining mol-mulki va daromadini deklaratsiya qilish korrupsiyaning oldini oladimi?
- “Jamiyatda poraxo‘rluk illatini yengib bo‘lmaydi”, degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgan (*Yaponiya yoki Xitoy fuqarosi ongida nega u shakllanmagan*)
- Korrupsiyaning oldini olish mumkinmi?
- O‘zbekistonda korrupsion holatlar va huquqbuzarliklar OAV yoritiladimi?

KORRUPSIYA VA IJTIMOIIY HAYOT

o'qitishning keys stadi texnologiyasi

OCHILOVA B.

Muharrir: **S.Normammedov**

Musahhih: **G.Kadirova**

Sahifalovchi: **J.Murtozaev**

Guvohnoma № 14-0003, 30.04.2020

Ofset qog'oz. Bosishga ruxsat etildi 07.12.2021.

Format 60x84. Garnitura «Times New Roman».

Shartli bosma taboq 4,5

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 23

JDPI Tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.

130100, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy

Tel./faks: (+99872) 226-02-93

(+99893) 305-85-00